O‘ZBEKISTON XALQ HUNARMANDCHILIGI VA TO‘QUVCHIKIK SAN'ATI.

Iskandarova Nodira - Guliston Davlat Pedagogika Instituti talabasi

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5242 farmonida ham xalqimizning bog madaniy merosi va tarixiy an'analarini to‘liq saqlab qolish va ko‘paytirish milliy hunarmandchilik xalq badiiy va amaliy san'atini yanada rivojlantirish hunarmandchilik bilan shug‘ullanuvchi fuqarolarni jar tomonlama qo‘llab- quvvatlash bo‘yicha maqsadli va kompleksli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ayol va qizlarimizga hamda kam ta'minlangan yoshlarimizni bandligini ta'minlash hunarmandchilik sohasida bajarishi lozim bo‘lgan bir qator vazifalar belgilab berildi. Buning zamirida hunarmadchilik markazlarida ustoz-shogird yo‘nalishlarda ishlar olib borilishi hamda mono markazlarimizda kasbga tayyorgalrlik o‘quv kurslari ochilishi misol bo‘la oladi. Hunarmandchilikning ishlab chiqarish sohasida, ayniqsa, ayol va qizlarni peshqadam ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Hunarmandchilikning tikuvchilik, to‘quvchilik, pazandachilik, zardozlik, do‘ppido‘zlik, kashtachilik sohalarida ayollarimiz yetakchi rollarda. Ayollarimiz hunarmandchilik markazlari bilan hamkorlikda ustoz-shogir an'anasini davom ettirgan holda yosh qizlarimiz va ayollarimizga hunar sirlarini o‘rgatib kelmoqda.Ular ,nafaqat,o‘zlarini band qilib balki,ishlab chiqarish sohasida ham yetakchi bo‘lib bormoqda.Bunday hunarmandchiligimizning rivojlanishi qadimiy an'analarimizni saqlab qolosh va rivojlantirish va yosh avlodga yetkazib berish vazifalarini bajarmoqda.

Hunarmandchiligimizning ayol va qizlarimiz sevib mashg‘ul bo‘ladigan san'at turlaridan biri buqo‘lda to‘qish san'ati.

To‘quvchilik-nihoyatda go‘zal eskirmaydigan qadimiy hunarlarimizdan biridir.U barcha davrlar va xalqlarning badiiy ijod tajribasini zarrama zarra mujassam qilgan chinakam amaliy san'at hisoblanadi.

Yillar o‘tib barcha amaliy san'at turlarining rivojlangani kabi to‘qish san'ati ham muttasil va takomillashib zamon bilan hamnafas o‘sib bormoqda.Qo‘l mehnatida to‘qikgan qalpoqcha, nimcha, paypoq, kurtka, telefon uchun g‘iloflar, sumkalar, gullarni biz har qadamda uchrab turganini ko‘rishimiz mumkin.To‘qish hunari zamonamizning eng oldi modalariga javob bera oladigan kiyim-kechak yaratishning bemalol imkonini bera oladi deyishimiz mumkin.

Qadim tariximizga nazar soladigan bo‘lsak ham o‘zbek xotin-qizlari ham mohir to‘quvchilardan bo‘lishgan. Ular mavjud hom-ashyolardan har xil hayvonlarni yunglarini olib, tozlab qo‘lda ib igirib o‘zlari va oila a'zolari uchun har xil kiyim-kechaklar to‘qib foydalanishgan. Qizlarimiz o‘z sarpolari uchun rumolchalr chetiga naqshlar to‘qib tushirishgan. Hozirgi kunda ham qizlarimiz va ayollarimiz orasida qo‘l yordamida to‘qilgan kiyim kechak to‘qish jarayoni keng rivojlanib kelmoqda.Qo‘lda to‘qilgan har bir ijoda namunasi xoh u kiyim,xoh u o‘yinchoq,xoh gullar bo‘lsin betakrorligidan bejirimligidan insonning nigohini o‘ziga jalb qiladi.

To‘qish-insonga estetk zavq beradi, asab tizimini tinchlantiradi va ruhiy zo‘riqishlarni bartaraf qilish uchun yordam beradi.Har bir inson qo‘lda to‘qib yaratgan ijod na'munasidan zavq oladi, go‘zalligiga maftun bo‘ladi va to‘qish hunariga yanada mehr qo‘yadi.

To‘qilgan ijod na'munlari ekalogik toza hech qanday allerhik kasalliklar keltirib chiqarmaydi.

Har bir ayol va qiz hayoti davomida tòqishni òrganib olsa turmushi davomida ishlatiladigan buyumlar, kiyimlar, gilacha va gilamlar tòqib foydalanishlari mumkin.

To‘qish-amaliy san'at.hisoblanadi u nihoyatda zavqli va foydali.

Ayollar va qizlar uchun bu hunar munosib hamda ozoda ish.

To‘qishning boshqa hunarlardan afvzalliklari juda ko‘p.

Bunga misol to‘qilgan kiyim yaroqsiz bo‘lib yotmaydi yoki tashlab yubormaymiz.Uni boshqatdan so‘tib qaytatdan to‘qiladi.

Xulosa qilib aytganda har bir salbiy otatlar bòsh vaqtlarni mazmunsiz o‘tkazishdan kelib chiqadi.Ayniqsa yoshlarimiz òrtasid avj olgan telefon gajetlatga boĝlanib vaqtlarini behuda o‘tkazish yanada ortib bormoqda .Bunday salbiy oqibatlarni oldini olish uchun bartaraf etish uchun avvalo bo‘sh vaqtidan unimli foydalangan holatda biror bir hunarmandchilik turi bilan shug‘illanish kerak.